

“PADARKUSH” DRAMASI HAQIDA BA’ZI MULOHAZALAR

Rahmonaliyeva Dilshunos Elyorbek qizi

Chirchiq davlat pedagogika universitet O‘zbek tili va adabiyoti 2-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: A.U. Muydinova

ChDPU O‘zbek adabiyotshunosligi kafedrasi dotsenti v.b., f.f.b.f.d (PhD)

Annotatsiya: *Ushbu maqolada jadidchilik harakatlari to‘g‘risida, qolaversa, Behbudiyning “Padarkush” dramasi va uning badiiy xususiyatlari, muallif tomonidan ilgari surilga g‘oyalar ochib beriladi.*

Kalit so‘zlar: *jadidchilik, ijtimoiy-siyosiy, boy, domla, ziyoli, padarkush, millatchi musulmon.*

Абстрактный: *В состоянии рассматривается движение джадидов, такая же драма Бехбуди «Падаркуш» и ее художественные особенности, а такие идеи, выдвинутые автором.*

Ключевые слова: *джадидизм, общественно-политический, богатый, проповедник, интеллектуал, патриот, националист-мусульманин.*

Abstract: *This article discusses the Jadid movement, as well as Behbudi's drama "Padarkush" and its artistic features, as well as the ideas put forward by the author.*

Keywords: *Jadidism, socio-political, rich, preacher, intellectual, patriot, nationalist Muslim.*

Jadidchilik harakati XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Markaziy Osiyoda shakllangan ijtimoiy-siyosiy va madaniy-ma’rifiy harakat bo‘lib, uning asosiy maqsadi musulmon xalqlarining uyg‘onishi, jaholatdan xalos bo‘lishi va zamonaviy taraqqiyot sari intilishini ta’minlash edi. Bu harakat vakillari jadidlar edi. Jadidlar xalqni ilm-fan, texnika, ta’lim va madaniyat orqali uyg‘otishni o‘z oldilariga maqsad qilib qo‘yganlar. Jadidchilik harakati nafaqat o‘zbek milliy

uygʻonish davrining poydevorini yaratdi, balki zamonaviy oʻzbek madaniyati, adabiyoti va taʼlim tizimi shakllanishida muhim roʻl oʻynadi. Ana shunday maʼrifatparvarlarimizdan biri Mahmudxoʻja Behbudiydir.

Mahmudxoʻja Behbudiy oʻzining “Padarkush” dramasi bilan xalqimiz orasida oʻchmas iz qoldirgan. Uning nafaqat “Padarkush”, balki boshqa asarlari ham xalqimiz maʼnaviy mulkiga aylanib boʻlgan. Bu asar oʻzbek adabiyotiga ilk drama hisoblanadi. Asardan koʻzlangan asosiy maqsad ilm, tarbiya va axloqdan yiroq boʻlgan jamiyatda insoniyat qanday fojialarga yoʻliqishi mumkinligini koʻrsatishdir. Asarda oʻqimagan bolaning bilimsizligi, nodonligi va axloqsizligi natijasida oʻz otasining oʻlimiga sababchi boʻlgani juda taʼsirli lavhalarda aks ettiriladi. Asar qahramonlaridan birining tilidan chiqqan quyidagi gaplar asarning tub mohiyatini ochib bergan: “Bizlarni xonavayron...bevatan va bandi qilgʻon tarbiyasizlik va jaholatdir, bevatanlik, darbadarlik, asorat, faqirlik zarurat va xoliqlar...hammasi ilmsizlik va betarbiyalikning mevasi va natijasidir...”

Muallif Boy obrazi orqali pul, mol-dunyoga ega boʻlgan, ammo uni ilm yoʻli, farzand tarbiyasi uchun sarflashni oʻylamagan kimsa qiyofasini ochib beradi. U hamma narsani – inson qadr-qimmatini, obroʻ-eʼtiborini pul bilan oʻlchaydi. *“Mani xayolimgʻa dunyoning sababi, izzati – boylik. Oxiratga boʻlsa, Xudoning qilgan taqdiri boʻlur. Chunonchi, biz koʻramizki, odamlar boyni mullodan ziyoda izzat qiladurlar. Xususan, mana, banklar koʻpaydi. Katta boylar chilen boʻlib, har kim chilendlarni izzat qilur, hatto, ishi tushaturgʻonlar chilen molini qimmat olur, azbaski, chilen iltifotiga olmagan odamlarga banklar pul bermaydurki, soʻngra muomiladorlar sinib, mayda-mayda boʻlur, bildingizmi?”*

Eng achinarli jihati, Boy Domlaning ham, Ziyolining ham gapiga quloq solmaydi. Ularning bergan savollariga qoʻpollik bilan javob qaytaradi.

Dastlab, Boy huzuriga kirib kelgan domla Boyni ilm-maʼrifatga, oʻgʻlini esa oʻqitishi zarurligiga urgʻu beradi. Domla oʻz zimmasidagi amri maʼruf va nahyi munkar, yaʼni yaxshilikka chorlab, yomonlikdan qaytarishdek bir vazifani bajaradi. Undan keyin kelgan Ziyoli ham Boyga oʻgʻlini oʻqitishi kerakligini aytadi, lekin Boy uning ham gaplariga quloq solmaydi. Ziyolini millatchi

musulmon, deydi. Asarda Ziyoli – olimi zamoniy bo'lsa, Domla esa olimi diniydir. Bularning fikr va g'oyalari Boy, Toshmurod, Tangriqul, Artun kabi obrazlarga qarama-qarshi turadi.

Asar qahramoni, ya'ni boyning o'g'li – Toshmurod. Nima uchun muallif erka, tantiq, ilmsiz va axloqsiz bolaga bunday nom bergan. Kitobxonni o'ylashga majbur qilsa ajab emas. Chunki bu ham asarning ma'lum bir qismini ochib berishga yordam beradi. Undagi ba'zi bir voqealarga ishora qiladi desak, adashmagan bo'lamiz. Uning ilm o'rganmaganligi va tarbiyasizligi juda ham ko'p salbiy voqea-hodisalar kelib chiqishiga sabab bo'lgan. Oq va qorani tanimasligi, kim do'st-u, kim dushmanligini bilmasligi ilmsizligiga ishoradir. Shu sababli yomon bolalarga qo'shib, o'z uyiga o'g'irlikka tushganligi va o'z otasini qotiliga aylanish darajasigacha yetib kelgan. Uning qalbi shu qadar toshdek qotib qolgan ediki, qilgan ishini o'ylab ham o'tirmaydi. Mehirsiz va toshbag'rligi, o'qimaganligi tufayli shunday holatga yetib kelganligi buning yaqqol dalilidir.

Asardagi ayrim obrazlarning holati kishini o'ylantiradi. Ko'pchilik bunga unchalik e'tibor bermasligi mumkin. Asarda Domlaning nos, Ziyolining esa chilim chekishi e'tibordan qolishi tabiiy. Nima uchun Domladek islom dini ilmini chuqur egallagan odam nos chekyapti. Agar asarda boshqa oddiy odam nos cheksa, bu oddiy holat-ku, deb bee'tibor bo'lishimiz mumkin edi, lekin muallif nima uchun domla obrazi orqali bu holatni aks ettiryapti? Ziyoliga keladigan bo'lsak, u ham ko'p o'qigan ilm egasi, millatchi musulmondur. Uning zamonaviy ilmlarni chuqur egallaganidan xabardormiz. Adib nima uchun bu obrazlar holatini bunday tasvirlagan, bu bilan nima demoqchi?

Asarda nos – xalq orasida keng tarqalgan, lekin ko'proq odat tusiga kirgan illat sifatida tasvirlanadi. Bunda oddiy xalqning ko'r-ko'rona e'tiqodga tayanuvchi, passiv va hayotga yondashuvi tor odamlar ekanligi, hali ko'p ilmni egallamaganliklari buning yaqqol dalilidir. Shu bilan birga, ana shu davrning aksariyat, qism domlalarining hur fikrli emasliklari, ya'ni o'zlarining shaxsiy fikrini bildirishga qodir emasliklari, bolsheviklar va ana shu davrda hukm surgan xonlarning fikridan chiqmaganliklari, ularning yo'riqlariga yurib, dinni o'zlariga

moslashtirib, islom diniga zid bo'lgan harakatlarni qilishgan. Oddiy xalqni esa bunga ishontirishga harakat qilishgan. Bundan ko'rinadiki, ana shunday domla ko'rinishidagi insonlar din ilmini chuqur bilmasliklarini, bilganlariga esa o'zlari to'liq amal qilmasligini ko'rsatadi. Haqiqiy ilmi, din egasi bo'lgan domlalar dunyoga moslashmaydilar, balki har qanday holatda ham dunyoni o'zlariga moslashtira oladilar.¹

Ziyolining chilim chekishiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, bu iztirob va fikrchanlik timsolidir. Bu orqali muallif Ziyoli zamonaviy bilim egasi ekanligi, ammo amalda ijtimoiy hayotda o'z o'rnini topolmayotgan, ichki iztirobda, o'z fikrlarini jamiyatga ta'sir qildiray olmayotgan inson sifatida tasvirlanadi. Chilim – falsafiy o'yga, sokinlikka chorlovchi vosita bo'lib, uning murakkab ichki dunyosini ko'rsatadi.²

Behbudiyning ushbu dramasi XX asr boshlarida yozilgan bo'lishiga qaramasdan, bugungi kun bilan chambarchas bog'liq. Chunki uning zamirida ma'naviy-ruhiy, tarbiyaviy ma'no yotadi. Tarbiya hech qachon eskirmaydigan hamda tugal yeshimi topilishi mushkul bo'lgan masalalardandir. Insonni yoshligidan tarbiyalash lozim. Odam farzandini ham navnihol daraxtga mengzash mumkin. U qay tomonga yo'naltirib tarbiyalansa, umrining oxirigacha ana shu yo'ldan boradi.

Mahmudxo'ja Behbudiy mazkur sahna asari vositasida ilm-ma'rifatning qadr-qimmatini zo'r mahorat bilan bayon qildi. Ilmning moddiyatdan ustun ekanligini ko'rsatib berdi. Toshmurod jaholat qurboni bo'ldi. Muallif jamiyatda boshqa bunday qurbonlar bo'lishini xohlamaydi. Jaholatga qarshi ma'rifat yo'lida ildam qadam tashlashimiz kerakligi asarning bugungi kun uchun ham ahamiyati beqiyos ekanligini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirzayev S. XX asr O'zbek adabiyoti. – Toshkent, 2005.

¹. ¹[<https://www.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/matbuot/mustaqillik-matbuoti/begali-qosimov-o-zbek-milliy-uyg-onish-adabiyoti-2000>].

². ²[<https://www.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/matbuot/mustaqillik-matbuoti/begali-qosimov-o-zbek-milliy-uyg-onish-adabiyoti-2000>].

<https://scientific-jl.com/>

2. Nazarov B., Mirvaliyev S., To'xliyev B. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent, 2007.
3. To'xliyev B., Karimov B., Usmonova K. Adabiyot. – Toshkent, 2017.
4. O'zbek adabiyoti. O'rta maktablarning 11-sinflari uchun darslik. – Toshkent: O'qituvchi, 2004 – B.71
5. Qosimov B., Yusupov Sh., Dolimov U., Rizayev Sh., Ahmedov S. Milliy uyg'onish davri adabiyoti.- Toshkent: Ma'naviyat, 2004, 164-b.
6. Behbudiy.Tanlangan asarlar - Toshkent: Ma'naviyat, 2007.
7. Karimov N. Mahmudxo'ja Behbudiy - Toshkent, 2010.